

**TIQXMMI MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/14.07.2022.B.10.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

JALOLOVA BAHORA SHUHRAT QIZI

**FITOGORMON HOSIL QILUVCHI MAHALLIY BAKTERIYALAR
ASOSIDA *VITIS VINIFERA* O'SIMLIGI RIVOJLANISHINI
KUCHAYTIRUVCHI BIOLOGIK PREPARAT YARATISH**

03.00.04 – Mikrobiologiya va virusologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Jalolova Bahora Shuhrat qizi

Fitogormon hosil qiluvchi mahalliy bakteriyalar asosida *Vitis vinifera* o‘simligi rivojlanishini kuchaytiruvchi biologik preparat yaratish..... 3

Жалолова Бахора Шухрат кизи

Создание биологического препарата, усиливающего рост растения *Vitis vinifera*, на основе локальных бактерий-продуцентов фитогормонов 23

Jalolova Bahora Shuhrat qizi

Development of a biological preparation to enhance the growth of *Vitis vinifera* based on local phytohormone-producing bacterial strains 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

TIQXMMI MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/14.07.2022.B.10.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

JALOLOVA BAHORA SHUHRAT QIZI

FITOGORMON HOSIL QILUVCHI MAHALLIY BAKTERIYALAR
ASOSIDA *VITIS VINIFERA* O'SIMLIGI RIVOJLANISHINI
KUCHAYTIRUVCHI BIOLOGIK PREPARAT YARATISH

03.00.04 – Mikrobiologiya va virusologiya

BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/B805 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.chdpu.uz.ilmiy-kengash) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turayeva Bahora Ismailovna

biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim.

Rasmiy opponentlar:

Xo'jamshukurov Nortoji Abdixalikovich,

biologiya fanlari doktori, professor;

Eshboyev Farhod Bakir o'g'li,

biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/14.07.2022.B.10.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" kuni soat "_____" dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy, Tel.: (+99871) 237-19-31, faks: (+99871)237-38-79; e-mail: ifar@tiame.uz).

Dissertatsiya bilan "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti qoshidagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ ____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy, Tel.: (+99871) 237-19-31, faks: (+99871)237-38-79; e-mail: ifar@tiame.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "_____" da tarqatildi.

(2025 yil "_____" dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

M. K. Juliye

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi, b.f.d., kat.i.x.

N.Sh. Azimova

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, b.f.f.d., kat.i.x.

V.B. Fayziyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, b.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ekologik toza va raqobatbardosh qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu borada uzumchilik tarmog'i alohida e'tiborni talab qilmoqda. Ayniqsa, ushbu sohaga zamonaviy, ekologik xavfsiz va yuqori samarali texnologiyalarni joriy etish orqali hosildorlikni oshirish, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini biologik usullar bilan rag'batlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Xususan, fitogormon hosil qiluvchi mahalliy foydali bakteriyalar asosida *Vitis vinifera* L. o'simligi rivojlanishini kuchaytiruvchi biologik preparatlar yaratish yo'nalishi nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa uzumchilik sohasida raqobatbardoshlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Jahonda uzum muhim ekinlaridan biri bo'lib, yirik uzum etishtiruvchi davlatlarga Italiya, Fransiya, Ispaniya, Turkiya, Gretsiya va Portugaliya kabi mamlakatlar kiradi. Turkiya va Gretsiya quritilgan uzum mevasini eksport qilish bo'yicha ham muhim o'rinni egallaydi. Samarali mikroorganizmlardan foydalanishga asoslangan biotexnologiyalar zararsiz bo'lib, tuproq-o'simlik va mikroorganizmlar munosabatlarini tiklanishiga hamda tuproq holati (strukturasi, unumdorligi, suv va havo xossalari) ning yaxshilanishiga olib keladi. Bugungi kunda samaradorligi yuqori bo'lgan biotexnologiyalar dunyoning ko'plab (Yevropa, AQSh, Xitoy) mamlakatlarida keng ko'lamda joriy qilinmoqda. Tirik mikroorganizmlar koloniyalarini o'z ichiga olgan biologik vositalar tuproq va o'simliklarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biologik preparatlar yaratishning yuqori samarali usullarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. O'simliklarni himoya qilishda hamda ularning hosildorligini oshirishda faol mikroorganizmlarni aniqlashning istiqbolli usuli tuproq va iqlim sharoitiga moslashgan mahalliy ekinlar rizosferasi hisoblanadi. O'simlik rizosferasida faol foydali mikrofloraning rivojlanishi va barqarorlashuvi natijasida fitopatogen mikrofloraning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Rizosfera mikroorganizmlari va ularning metabolitlari assotsiatsiyasi asosida yaratilgan biopreparatlar polifunksional ta'sirga ega bo'lib, kimyoviy himoya vositalari hamda fungitsidlarning alternativi hisoblanadi.

Mamlakatimizda, ekologik toza agrotexnologiyalardan biri sifatida fitogormon hosil qiluvchi mahalliy mikroorganizmlar asosida biologik preparatlar ishlab chiqish alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday preparatlar tarkibidagi faol mikroorganizmlar o'simliklarning rizosferasida yashab, tabiiy fitogormonlar (auksinlar, gibberellinlar) hosil qiladi va o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi hamda stress omillariga bardoshlilikini kuchaytiradi. Bundan tashqari, ular tuproqdagi mikrobiologik muvozanatni saqlash, fitopatogen organizmlar faoliyatini kamaytirish, tuproqning fizik-kimyoviy va agrobiologik xossalarni yaxshilash orqali uzum yetishtirishda kompleks foyda beradi.

Respublikamizda keyingi yillarda uzumchilikni rivojlantirish bo'yicha Prezident va Vazirlar mahkamasining Qarorlari: O'zbekiston respublikasi Prezidentining 11-dekabr 2019-yildagi PQ-4549-sonli «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori, 2021-yil 28-iyuldagi PQ-5200-sonli "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2023-yil 3-avgustdagi PQ-260-sonli "2023-2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2022-yil 10-iyundagi 327-sonli "uzumchilik, bog'dorchilik, issiqxona xo'jaliklarini yurituvchi va vinochilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi subyektlarni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda, Vazirlar Mahkamasining qaroriga, 2021-yil 3-dekabrda 731-sonli "Bog'dorchilik-uzumchilik shirkatlari faoliyatini tartibga solishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va 2019-yil 23-oktyabrda PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash, meva-sabzavot va uzumchilik sohasida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini oshirish, foydalanishdan chiqqan va lalmi yerlarni o'zlashtirish, paxta, g'alladan qisqartirilayotgan maydonlarga eksportbop qishloq xo'jaligi ekinlari ekishni ko'paytirish, shuningdek, bog', tokzor va issiqxonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida: qator chora tadbirlar ishlab chiqilgan va uzumchilik sohasini kengaytirish, Respublikamizning eksport salohiyatini oshirish va eksport mahsulotlari yetishtirishni kuchaytirish alohida ta'kidlanadi.

Shu bois, mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston sharoitida ekologik xavfsiz, samaradorligi yuqori bo'lgan, biologik asosda tayyorlangan preparatlar ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, uzum etishtirishda hosildorlikni oshirish, tuproq sifatini yaxshilash, fitopatogenlarga qarshi tabiiy himoya yaratish hamda eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ilmiy adabiyotlarda *Vitis vinifera* L. uzumning mikrobiomi (N.A. Meyrbekov va boshq. 2023; Belkina D.D. 2021, White R.E. 2020, Munakata R. 2019, Bona, E.N. 2018) tadqiq qilingan. Tadqiqotlarimizga mos ravishda *Vitis vinifera* L. mikroflorasidan *Bacillus* va *Pantoea* avlodiga mos bakteriyalar (JUK O.N. 2022) ajratib olinganligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Respublikamiz olimlari tomonidan mikroorganizmlarning tarqalishi, ularning morfologiyasi, strukturasi, turli ozuqa muhitlarida o'stirish biotexnologiyasi,

fitogormonlar sintezlashi va antifungal xususiyatlari N.Yu. Zuxritdinova (2008 y.), T.G. Gulyamova (2010 y.), azot o'zlashtiruvchi bakteriyalar, Q.D. Davranov (2011-2018 yy.), S.M. Xodjibaeva (2012 y.) N.A. Xo'jamshukurovlar (2017) va B.A. Rasulov (2018 y.) tomonidan o'rganilgan va mikroorganizmlar asosida fermentli (Z.R. Axmedova), tuproq va havodagi azotni o'zlashtiruvchi (Z.S. Shakirov, G.X. Kadirova) biopreparatlar yaratilgan.

Ammo, ilmiy adabiyotlarda tok mikrobiomidan ajratib olingan mahalliy foydali bakteriyalar asosida kompleks ta'sirga ega preparatlarni yaratish to'g'risidagi ma'lumotlar deyarli uchramaydi. O'simlikga moslashgan mahalliy mikrob jamoalarini aniqlash va ular asosida biopreparat yaratish mikroorganizmlarning intensiv faoliyati natijasida minerallar, o'simlik qoldiqlari va chirindilarning asta-sekin parchalanishi, hamda tuproqning tizimli ravishda oziq moddalar bilan boyishiga olib keladi. Bugungi kunda kimyoviy pestitsidlarning alternativi bo'lgan mikroorganizmlar asosida yaratilgan ekologik toza, havfsiz preparatlardan foydalangan holda tok o'simligini yetishtirish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zR FA Mikrobiologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining «Uzumchilikda fitogormon sintezlovchi bakteriyalar asosida biopreparat yaratish» (2022-2024) A-FA-2021-524 sonli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Vitis vinifera* L. o'simligi rizosfera va epifit bakteriyalarini ajratish, ulardan fitogormon (gibberellinlar, indolil sirka kislota) sintez qiluvchi samarali bakteriya shtammlarini aniqlash va tanlab olingan shtammlar asosida tok o'simligining o'sishini kuchaytiruvchi yuqori samarali biopreparat yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Tok o'simligining mikroflorasini o'rganish, epifit va rizosfera mikroorganizmlarini ajratib olish hamda o'sishni stimullovchi xususiyati bo'yicha skrining qilish;

Tanlangan bakteriya izolyatlarining morfo - kultural va biokimyoviy xususiyatlarini aniqlash va identifikatsiyalash;

Ajratilgan faol izolyatlarni turli fitopatogenlarga qarshi antifungal va antibakterial faolligini baholash;

Faol bakteriya shtammlarining yuqori miqdorda fitogormon sintezi uchun ozuqa muhiti va o'stirish sharoitlarini optimallashtirish;

Tanlangan bakteriya shtammlarining GK va ISK hosil qilishini dinamikada aniqlash;

Priestia megaterium va *Pantoea agglomerans* bakteriya shtammlari assotsiatsiyasi asosida kompleks ta'sirga ega biopreparat yaratish, laboratoriyada sinovlardan o'tkazish va amaliyotda foydalanish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida 3, 10 va 15 yillik tok (*Vitis vinifera* L.) plantatsiyalarida o'stirilayotgan o'simliklarning turli organlaridan ajratib olingan, fitogormon (gibberellin – GK va indol-3-sirka kislota – ISK) hosil qilish

xususiyatiga ega *Pantoea agglomerans* BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 bakteriya shtammlari hamda ushbu shtammlar ta'sirida o'rganilgan *Vitis vinifera* L. uzumining "Kishmish", "Kelin barmoq" va "Rizamat" navlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti GK va ISK sintezlovchi bakteriya shtammlarining o'sish xususiyatlari bo'yicha skrinning (saralash) qilish, tanlangan shtammlarning fitogormon hosil qilish faoliyatini oshirish uchun optimal suyuq ozuqa muhitini aniqlash, ularning fitogormon ishlab chiqarish dinamikasini baholash, shuningdek, tanlangan bakteriya shtammlari asosida biologik preparat yaratish va uni *Vitis vinifera* L. uzum navlariga dala sharoitida tatbiq etishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarni bajarish jarayonida mikrobiologik, molekulyar-genetik, bioinformatik, biokimyoviy, mikologik, biotexnologik va statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor O'zbekistonda 3-10 va 15 yillik tok plantatsiyalaridagi o'simliklarning mikroflorasi tadqiq qilingan, yuqori o'stiruvchan xususiyatlari asosida *Pantoea agglomerans* BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 bakteriya shtammlari tanlab olingan, molekulyar genetik usulda identifikatsiya qilingan va NCBI ma'lumotlar bazasiga kiritilgan;

Uglerod manbai (melassa) bilan boyitilgan Kartoshka melassali (pH 6,5-7,5) ozuqa muhitida har ikkala bakteriya shtammining $30\pm 2^{\circ}\text{C}$ haroratda 7 kun davomida o'stirilganda yuqori miqdorda GK, ISK hosil qilishi aniqlangan;

Pantoea agglomerans BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 shtamlari ko'pgina qishloq xo'jaligi o'simliklari uchun patogen bo'lgan *Botrytis*, *Fusarium*, *Alternaria*, *Aspergillus* va *Agrobacterium* turkumiga mansub fitopatogen zamburug'larga qarshi yuqori antifungal faolligi aniqlangan;

Birinchi bor O'zbekiston hududidan ajratib olingan bakteriyalar KM (kartoshka-melassa) muhitida inkubatsiya qilingan *P. megaterium* BDI-2 shtammi tomonidan $343,4\pm 7,24$ mkg/ml GK va $409,1\pm 11,45$ mkg/ml ISK, *P. agglomerans* BDI-1 esa mos ravishda $316,1\pm 6,01$ mkg/ml GK va $527,4\pm 15,29$ mkg/ml ISK gacha sintez qila olish qobiliyatiga ega ekanligi tajriba yo'li bilan asoslab berilgan.

Ilk bor O'zbekistonda *Vitis vinifera* L o'simligidan ajratib olingan kultural suyuqligida yuqori miqdorda GK hosil qiluvchi uzumning rivojlanishini kuchaytiruvchi, hosildorligini oshiruvchi *Pantoea agglomerans* BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 bakteriya shtammlari asosida yangi kompleks ta'sirga ega «Bioquvvat» preparati yaratilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tok o'simligidan mahalliy bakteriyalar ajratib olingan, turigacha aniqlangan bakteriya shtammlari NCBI ma'lumotlar bazasida ID (OP727725 va OP782582) raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan; *P. agglomerans* BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 bakteriya shtammlari yuqori miqdorda fitogormon hosil qilishi aniqlangan, tok o'simligining rivojlanishi va mevasining yiriklashishi tuproq unumdorligi oshganligi kuzatilgan;

Mahalliy bakteriyalar asosida yangi yaratilgan namunaviy “Bioquvvat” biopreparati (1 l/ga, $3,2 \times 10^7$ huj/ml) dala sharoitida amaliyotga tatbiq qilinganda tok o‘simligiga, bioprepart o‘simlik va tuproqqa polifunksional ta’sir mexanizmiga ega, shuningdek, tuproqning unumdorligi, gumus miqdori ortishi hamda strukturalari va fizik-mexanik xususiyatlarining yaxshilanganligi aniqlandi. Fitopatogen mikroorganizmlar bilan zararlanmaganligi va hosildorligining nazoratga nisbatan 25-30 % ga oshishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi an’anaviy va zamonaviy tadqiqot usullar qo‘llanilganligi, ular asosida olingan natijalarning amaliy mutanosibligi, ularning yetakchi hamda nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi, amaliy natijalarni vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi. Tashqi muhitda bir xil sharoitda uzoq vaqt talab qiluvchi tadqiqotlarni (1-4 oy davomida) takrorlashning iloji yo‘qligi sababli, taqdim etilgan grafikalar bitta tipik tajribalarning 3-4 yil davomida 3-6 takroriy seriyalaridan olingan natijalarni ko‘rsatadi. Tajribalar nisbatan bir xil sharoitlarda o‘tkazilgan hollarda, 5-6 o‘lchov va standart xatoliklarning o‘rtacha qiymatlari OriginPro 2021, Microsoft Excel 2016 kompyuter dasturida $P < 0.05$ ishonchli farq qilishi ANOVA dasturida tahlil qilingan. MEGA X dasturlari yordamida bioinformatik tahlil qilingan va nukleotidlar ketma-ketligini NCBI ma’lumotlar bazasiga joylashtirilgan, natijalarni respublika va xalqaro konferensiyalarda muhokama qilingan va tadqiqot natijalarini Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda nashr etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega, kultural suyuqligida yuqori miqdorda fitogormonlar hosil qiluvchi *Pantoea agglomerans* BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 bakteriya shtammlari asosida olingan kultural suyuqlik yordamida tok plantatsiyalarini 3 marta oziqlantirish orqali ularni hosildorligini oshirish usullari ishlab chiqilgan;

Yuqori miqdorda GK va ISK sintezlovchi *Pantoea agglomerans* BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 bakteriya shtammlari asosida kompleks ta’sirga ega «Bioquvvat» biopreparatining laboratoriya reglamenti yaratilgan;

Navoiy viloyati Xatirchi tumani «Bog‘i chaman Bog‘i shamol» fermer xo‘jaligining jami 1,0 gektar maydonidagi 5 va 10 yillik tok plantatsiyalarida amaliyotga joriy qilingan. «Bioquvvat» biopreparati bilan ishlov berilganda hosilning tez yetilishi, meva donalarining yiriklashishi aniqlangan. Uzunmning fitopatogen mikroorganizmlar bilan zararlanishi kuzatilmagan, tajriba variantida 1 gektar yer maydonidan 5,5 tonna, nazorat variantida 2,8 tonna hosil olishga erishilgan.

«Novandak g‘ururi mayizi» fermer xo‘jaligining jami 1,0 gektar maydonidagi 5 yillik tok plantatsiyalarida amaliyotga joriy qilingan. 1 gektar yer maydonidan 4 tonna, nazorat variantida 1,8 tonna hosil olishga, tajriba variantlaridagi ishlov berilgan maydondan umumiy hosil nazoratga nisbatan 2,2 tonnaga oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Pantoea agglomerans BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 bakteriya

shtamlari asosida fitogormon saqllovchi preparatni uzumchilikda joriy etish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

Navoiy viloyati Xatirchi tumani «Bog'i chaman Bog'i shamol» fermer xo'jaligining jami 1,0 gektar maydonidagi 5 va 10 yillik tok plantatsiyalarida amaliyotga joriy qilingan. «Bioquvvat» biopreparati bilan ishlov berilganda hosilning tez yetilishi, meva donalarining yiriklashishi aniqlangan. Uzunmning fitopatogen mikroorganizmlar bilan zararlanishi kuzatilmagan, tajriba variantida 1 gektar yer maydonidan 5,5 tonna, nazorat variantida 2,8 tonna hosil olishga erishilgan.

«Novandak g'ururi mayizi» fermer xo'jaligining jami 1 gektar maydonidagi 5 yillik tok plantatsiyalarida amaliyotga joriy qilingan. 1 gektar yer maydonidan 4 tonna, nazorat variantida 1,8 tonna hosil olishga, tajriba variantlaridagi ishlov berilgan maydondan umumiy hosil nazoratga nisbatan 2,2 tonnaga ortishiga erishilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 8 oktyabrdagi 05/06-02-873 son ma'lumotnomasi).

Shuningdek, Farg'ona viloyati Farg'ona tumani «Qobuljon Murodjon Fayz» fermer xo'jaligida 10 ga yer maydonida uzumning «Rizamat» va «Kelin barmoq» navlariga joriy etilgan. Hosildorlikning 25-30% oshishiga erishilgan.

Tanlab olingan bakteriya shtamlari genetik identifikatsiya qilingan 16S rRNK nukleotidlar ketma-ketligi xalqaro NCBI ma'lumotlar bazasida *P.agglomerans* BDI-1 (OP727725) va *P.megaterium* BDI-2 (OP782582) ro'yxatdan o'tkazilgan:

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 9 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish nashr qilingan, shulardan 6 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilab olingan, ob'ekti va usullari tavsiflangan, ilmiy yangiligi belgilab berilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinish holati, nashr qilingan etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'simlik va tuproq kompleksida ishtirok etuvchi mikroorganizmlarning *Vitis vinifera* L. (tok) o'simligi rivojlanishiga va mahsuldorligiga ta'siri tog'risida adabiyot manbalarining sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida Tok o'simligining ildizidagi mikroorganizmlarning

umumiy taxlili, *Vitis vinifera* L. (tok) o'simligidan mikroorganizmlarning toza kulturalarini ajratib olish hamda bakteriyalarni o'stiruvchi xususiyati bo'yicha skrining qilish, *Vitis vinifera* L. (tok) o'simligi mikroflorasini tadqiq qilish, bakteriyalarni ajratib olish, ularning morfologik xususiyatlarini o'rganish va identifikatsiya qilish, Ajratib olingan bakteriyalarni antifungal va antibakteriyal faolligi, *Priestia megaterium* va *Pantoea agglomerans* shtammlarining hujayra sonini aniqlash haqida bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**O'sishni faollashtiruvchi bakteriyalarni tanlash, ularning o'stiruvchi, morfologik-kultural va fiziologik-biokimyoviy, xususiyatlarini o'rganish, laboratoriya sharoitida biopreparat olish va amaliyotda qo'llash usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida 5-15 yillik sog'lom *Vitis vinifera* L. o'simlik namunalaridan epifit va rizosfera bakteriyalarni ajratib olish, skrining natijasida tanlab olingan eng faol *Priestia* sp. va *Pantoea* sp. bakteriyalarining morfologo-kultural va fiziologo-biokimyoviy xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, uning o'sishi uchun optimal ozuqa muhiti va ko'paytirish sharoitlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Shu bilan birga, *Priestia* sp. va *Pantoea* sp. bakteriyalarining tok o'simligining o'sishini qo'llab-quvvatlash, kasalliklardan himoya qilish hamda o'sish va rivojlanishini barqarorlashtirishdagi samaradorligi baholangan. Tadqiqot davomida *Pantoea agglomerans* BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 shtammlari asosida tayyorlangan biopreparat turli sharoitlarda *Vitis vinifera* L. o'simliklarining unuvchanligi hamda o'sish-rivojlanishiga ta'sirini aniqlash uchun sinovdan o'tkazilgan.

Dissertatsiyaning «***Vitis vinifera* L. epifit mikroflorasini o'rganish va yuqori o'stiruvchi xususiyatga ega bakteriyalarni aniqlash**» deb nomlangan uchinchi bobida dissertatsiya ishining asosiy tadqiqot natijalari keltirilgan, bunda *Vitis vinifera* L. epifit va rizosfera mikroflorasini o'rganish sharoitlarini tanlash, *Vitis vinifera* L. o'simligidan mikroorganizmlarning toza kulturalarini ajratib olish hamda bakteriyalarni o'stiruvchi xususiyati bo'yicha skrining qilish, *Vitis vinifera* L. o'simligi mikroflorasini tadqiq qilish, bakteriyalarni ajratib olish, ularning morfologik xususiyatlarini o'rganish va identifikatsiya qilish ajratib olingan bakteriyalarni antifungal va antibakteriyal faolligi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

***Vitis vinifera* L. o'simligidan mikroorganizmlarning toza kulturalarini ajratib olish hamda bakteriyalarni o'stiruvchi xususiyati bo'yicha skrining qilish.** O'n besh yillik tok o'simligi *Vitis vinifera* L. plantatsiyalaridan «Oq-kishmish», «Qora-kishmish», «Rizamat» navlaridan namunalar olindi, Jami 37 ta turli xil rang, o'lcham, zichlik va shakllardagi izolyatlar namunalaridan ajratib olindi. Izolyatlar morfo-kulytral xususiyatiga qarab 7 ta *Bacillus*, 5 ta *Pseudomonas*, 5 ta *Pantoea*, 6 ta *Enterobacter*, 8 ta *Azotobacter* 2 ta *Rhizobium* va 4 ta *Agrobacterium* turkumiga mansub bakteriyalar ekanligi aniqlandi.


Ajratib olingan bakteriyalarning o'simliklarni o'sishini stimullovchi xususiyatlari Gipokotil usuli yordamida koleoptillarda batafsil tadqiq qilindi. Umumiy tekshiruvda ajatib olingan 37 ta bakteriya izolyatlari o'rganildi va 12, 24, 36 va 48 soatlardan keyin Petri idishlaridagi bug'doy urug'ini unib chiqishini rag'batlantiruvchi faoliyati orqali skrining qilindi (1-rasm). Olib borilgan tadqiqotlar

natijada nazoratda, BDI-6, BDI-10 va BDI-30 izolyatlarimiz 12 soatdan keyin urug'larimiz unib chiqmadi. Lekin shunga qaramay ayni shu vaqtda BDI-1, BDI-2, BDI-8, BDI-14, BDI-16, BDI-27, va BDI-37 izolyatlari bilan emlangan urug'larning unish darajasi mos ravishda $7,11 \pm 0,07$, $8,32 \pm 0,14$, $6,20 \pm 0,16$, $5,52 \pm 0,13$, $5,34 \pm 0,05$, $5,67 \pm 0,17$ va $6,24 \pm 0,13$ % ni tashkil qilgan. 24 soatdan keyin aynan o'sha izolyatlar nazoratga va boshqa izolyatlar bilan taqqoslaganda eng yuqori unib chiqish darajasini qayd qildi mos ravishda $38,21 \pm 0,84$, $41,12 \pm 1,34$, $34,42 \pm 0,75$, $36,33 \pm 0,39$, $33,74 \pm 0,91$, $34,27 \pm 0,43$ va $36,67 \pm 1,14$ % ni ko'rsatgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 36 soatdan so'ng urug'ning unib chiqishi keskin oshgan. BDI-1 namunalari unib chiqish darajasi $91,61 \pm 2,93$ % ga, BDI-2 da esa $94,17 \pm 1,78$ % ga etdi. Izolyatlar orasida urug'ning unib chiqish darajasi $90,55 \pm 1,72$ % dan past bo'lganlari ham kuzatildi. Tadqiqodning 48 soatdan keyin BDI-1 va BDI-2 namunalari orasida urug'ning unib chiqishi eng yuqori darajaga – $98,17 \pm 1,07$ % ga yetganligi aniqlangan.



1-rasm. Donli o'simliklarning urug'ini unib chiqishga bakteriya izolyatlarining ta'siri foizda (n=4)

Biopreparat ishlab chiqishda uning xavfsizligi va samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda biopreparatning patogen mikroorganizmlarga qarshi ta'siri sinovdan o'tkazildi. Ushbu tekshiruvlar preparatning amaliy qo'llanilishi va ekinlarni kasalliklardan himoya qilish imkoniyatini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, patogenlarga qarshi testlar preparatning ekologik xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi (2 rasm).



2-rasm *Preistia megaterium* BDI-2 va *Pantoea agglomerans* BDI-1 bakteriya shtammlarining patogen zamburug'larga nisbatan antagonist faolligi mm. (n=3)

ko'rsatgani aniqlandi (1-jadval).


Birinci skring bosqichida tanlab olingan izolyatlar ikkinchi skring jarayonida fitopatogen zamburug'larga nisbatan antifungal faolligi bo'yicha baholandi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 11 ta izolyat turlicha darajadagi ingibirlovchi ta'sir

Ajratib olingan bakteriya izolyatlarining patogen zamburug'larga nisbatan
antagonistligi mmda (n=4)

Bakterial izolyatlar	<i>Fusarium oxysporum</i>	<i>A. flavus</i>	<i>Botrytis cinerea</i>	<i>Fusarium equiseti</i>	<i>Fusarium verticillioides</i>	<i>Alternaria alternata</i>	<i>Fusarium solani</i>	<i>Fusarium moniliforme</i>
BDI-1	16,4±0,24	16,2±0,28	17,3±0,26	17,8±0,24	18,2±0,27	22,8±0,24	15,2±0,22	18,2±0,23
BDI-2	21,1±0,23	17,6±0,32	20,3±0,26	20,6±0,26	16,3±0,24	21,1±0,26	11,8±0,19	19,8±0,22
BDI-8	0	0	0	0	4,4±0,01	7,2±0,026	0	0
BDI-11	6,4±0,02	4,2±0,01	0	7,6±0,04	0	9,4±0,018	0	0
BDI-15	0	3,3±0,02	0	0	0	0	0	0
BDI-16	0	0	0	4,6±0,06	0	0	0	0
BDI-18	0	4,6±0,03	0	0	2,1±0,06	0	0	4,3±0,02
BDI-22	0	5,3±0,02	0	0	5,3±0,09	0	0	0
BDI-26	11,3±0,21	0	0	0	0	0	0	0
BDI-27	5,4±0,02	11,2±0,24	4,7±0,02	8,6±0,02	0	10,3±0,26	7,2±0,02	7,4±0,02
BDI-37	0	0	3,2±0,04	0	0	0	0	0
Nazorat	0	0	0	0	0	0	0	0


Bularning orasida eng yaxshi izolyatlarimiz BDI-1 va BDI-2 boshqalarga qaraganda ko'proq o'sishini ingibirladi va Petri idishidagi tajribada uning o'sishini ingibirlash zonasi mos ravishda *Fusarium oxysporum* (16,4±0,24 va 21,1±0,23mm), *A. flavus* (16,2±0,28 va 17,6±0,32mm), *Botrytis cinerea* (17,3±0,26 va 20,3±0,26 mm), *Fusarium equiseti* (17,8±0,24 va 20,6±0,26 mm), *Fusarium verticillioides* (18,2±0,27 va 16,3±0,24mm), *F.annulatum-F.fujikoro species complex* (8,22±0,21 va 0 mm), *Alternaria alternata* (22,8±0,24 va 21,1±0,26 mm), *Fusarium solani* (15,2±0,22 va 11,8±0,19 mm) va *Fusarium moniliforme* (18,2±0,23 va 19,8±0,22 mm) ni tashkil qildi.

Bakteriyalarni suyuq ozuqa muhitda seriyali suyultirish orqali ularni o'simliklarni o'sishiga ta'siri o'rganilganda, *Pantoea* sp. BDI-1 va *Priestia* sp. BDI-2 bakteriyalari o'zi va birgalikda turli nisbatlarda sinovdan o'tkazildi 1:100 nisbatdagi konsentratsiyasi qo'llanilganda loviya o'simliklarining rivojlanish ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanishi aniqlandi. Xususan, ushbu konsentratsiya ta'sirida loviyaning poya uzunligi 93,12±1,02% ga, ildiz uzunligi 72,22±1,58% ga, quruq og'irligi esa 40,19±1,08% ga oshgani qayd etilgan.



3-rasm. Tanlab olingan bakteriyalarni assotsiatsiyasi kultural suyuqligi konsentratsiyasi (n=4)


Pantoea sp. BDI-1 va *Priestia* sp. BDI-2 bakteriyalarining morfologik xususiyatlari yanada chuqurroq o'rganildi (4-rasm).



4-rasm. Uzunndan ajratib olingan a) *Pantoea* sp. va b) *Priestia* sp. bakteriyalarining mikroskopik kurinishi (Mikroskop –Leica DM 750. 1000 marta kattalashtirilgan)

Pantoea sp. gramm-manfiy tayoqchasimon, tayoqchalarining eni 1,3 μm , uzunligi 3 μm gacha yetadi. Ushbu bakteriya fakultativ anaerob bakteriyalar guruhiga kiradi. Ozuqa muhit yuzasiga aylana hosil qilib o'sishi aniqlandi. *Priestia* sp. BDI-2 gramm-musbat tayoqchasimon shakldagi bakteriya bo'lib, hujayralarining eni 1,2 μm , uzunligi esa 4,0 μm gacha yetadi. Ushbu bakteriya fakultativ anaerob guruhiga mansub ozuqa muhitlarida o'sish xususiyatlari bo'yicha BDI-2 izolyati zich, silliq tuzilishga ega yumaloq koloniyalar hosil qilib o'sishi kuzatildi. Koloniyalari och krem rangda bo'lib, muhit yuzasida bir maromda tarqaladi.

Yuqori aniqlikda identifikatsiya qilish maqsadida *Pantoea agglomerans* va *Priestia megaterium* bakteriya shtammlarining 16S rRNA gen ketma-ketliklari o'rganildi hamda olingan ma'lumotlar asosida ularning filogenetik shajarasi tuzildi (4-rasm).




5-rasm. *Pantoea agglomerans* BDI-1 16S ribosomal RNK, filogenetik daraxti

5-rasm. *Priestia megaterium* BDI-2 16S ribosomal RNK, filogenetik daraxti

<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nuccore/OP727725> <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nuccore/OP782582>


Patogen zamburug'lar va bakteriyalar tomonidan keltirib chiqariladigan kasalliklar butun dunyo bo'ylab o'simliklarning hosili yildan yilga kamayishini asosiy sabablaridan biridir. Borgan sari patogen bakteriya va zamburug'larning mavjud biopreparatlarga chidamliligi ortib ta'sir kuchini kamayishiga olib kelmoqda.



6-rasm. Tok o'simligidan ajratib olingan patogen zamburug'larga *Pantoea agglomerans* va *Bacillus megaterium* ta'siri (n=3)

Tadqiqotlarimizning keyingi bosqichida tanlab olingan bakteriya shtammlarini tok o'simligidan ajratib olingan patogen zamburug'larga qarshi antifungal ta'siri o'rganilganda, *Pantoea agglomerans* va *Bacillus megaterium* shtammlarning ikkalasi ham ijobiy natija berdi (6-rasm).


Tadqiqotimizda nafaqat fitopatogen zamburug'lar, balki hozirgi kunda ko'plab o'simliklarda shish (bakterial rak) kasalligini keltirib chiqaruvchi *Agrobacterium tumefaciens* ning besh xil shtammi ham o'rganildi. Ushbu shtamlar Samarqand davlat universitetidan olib kelingan bo'lib, ularga nisbatan izolyatlarning antibakterial faolligi baholandi. (7-rasm)



7-rasm *Prestia megaterium* BDI-2 va *Pantoea agglomerans* BDI-1 bakteriya shtamlarining patogen *Agrobacterium tumefaciens* ga nisbatan antagonist faolligi mm. (n=4)

EG 246 patogen shtamlarga $14,31 \pm 0,38$, $19,41 \pm 0,46$, $16,85 \pm 0,41$, $20,49 \pm 0,35$ va $22,78 \pm 0,54$ mm ni tashkil qilgan (8-rasm).


Priestia megaterium BDI-2 va *Pantoea agglomerans* BDI-1 shtamlarining GPB, Pikovskiy, Lauri-Bertoni, Chapek, Kartoshka dekstroza (KD) li va ishlab chiqarish (IShO-ishlab chiqarish uchun yaratilgan ozuqa muhiti) ozuqalariga GK va ISK faolligi aniqlandi. GP ozuqa muhitida har ikkala shtamlarning faol o'sishi kuzatildi. Inkubatsiyaning 1 kunidan boshlab fitogormon faolligi aniqlangan (8-rasm).



8-rasm. *Pantoea agglomerans* BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 shtamlarining 1) GPD, 2) Chapek va 3) Pikovskiy suyuq ozuqa muhitlarida GK va ISK hosil qilishi mkg/ml da (n=5)

Chapek ozuqa muhitida *P.agglomerans* BDI-1 bakteriya shtammi GK faolligi bir oz pastligi, eng yuqori miqdori $23,4 \pm 0,49$ mkg/mlni tashkil etdi. *P.megaterium* BDI-2 shtamining har ikkala ozuqa muhitida GK faolligi *P.agglomerans* BDI-1 shtammiga qaraganda nisbatan yuqori miqdorda, misol uchun mos ravishda $100,05 \pm 2,40$ mkg/ml va $88,2 \pm 1,04$ mkg/ml GK hosil qilganligi aniqlandi. ISK faolligi esa *P.agglomerans* BDI-1 va *P.megaterium* BDI-2 shtamining ISK eng yuqori faolligi $51,6 \pm 1,58$ mkg/ml va $135,8 \pm 1,91$ mkg/mlni tashkil qilishi aniqlangan.


P.agglomerans BDI-1 va *P.megaterium* BDI-2 shtamlarining fitogormon faolligi Luria-Bertani ozuqa muhitlarida aniqlangan (9-rasm).





9-rasm. 1). Luria-Bertani, 2). Ishlab chikarish (ICH) va 3). KDB ozuqa muhitlarida bakteriya shtammlarining GK va ISK hosil qilishi mkg/mlda (n=5)

Luria-Bertani (LB) ozuqa muhitida *Pantoea agglomerans* BDI-1 shtammi inkubatsiyaning 2 kunida $92,32 \pm 1,10$ mkg/ml GK va $254,81 \pm 8,66$ mkg/ml ISK hosil qildi. *Priestia megaterium* BDI-2 shtammi ushbu ozuqa muhitida ikkinchi kunida $167,12 \pm 3,84$ mkg/ml GK va $419,33 \pm 7,96$ mkg/ml ISK hosil qilishi aniqlandi. Lekin tadqiqotlarimizda *Pantoea agglomerans* BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 shtammlari KDB ozuqa muhitida eng faol GK hamda ISK hosil qilishi aniqlandi. to'rtinchi kunda KDB ozuqa muhitida *Pantoea agglomerans* BDI-1 $401,52 \pm 10,43$ mkg/ml GK va $488,46 \pm 13,67$ mkg/ml ISK, *Priestia megaterium* BDI-2 esa $466,34 \pm 12,59$ mkg/ml GK va $509,40 \pm 9,17$ mkg/ml ISK hosil qilishi aniqlandi. Shuning uchun KDB ozuqa muhiti keyingi tadqiqotlar uchun tanlab olingan.

***Pantoea agglomerans* BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 shtammlarida fitogormonlar sintezini oshirish uchun ozuqa muhiti tarkibini optimallashtirish va o'stirish sharoitlarini tanlash** maqsadida tadqiqotlarimizda shtammlarning fitogormonlar faolligini oshirish uchun ozuqa muhitining tarkibini boyitish va arzonlashtirish maqsadida ozuqa muhitining tarkibi o'zgartirilgan. KDB 2% dekstroza o'rniga 2% boshqa uglerod manbalari (saxaroza, melassa va maydalangan mayiz chiqindisi) qo'shilgan ozuqa muhitida faol *Pantoea agglomerans* BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 shtammlarni GK va ISK hosil qilishi o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra uglerod manbai sifatida melassa va maydalangan mayiz chiqindisi dan foydalanish, bakteriyalarning o'sishi, fitogormonlar faolligi va ularning miqdoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi (10-rasm).






10-rasm. *Priestia megaterium* BDI-2 (A, B) va *Pantoea agglomerans* BDI-1 (C, D) shtammlarining GK va ISK hosil qilishiga turli xil uglerod manbalarining ta'siri mkg/ml da ($n=5$).

P.megaterium BDI-2 bakteriya shtammi saxarozali ozuqa muhitida inkubatsiyaning 4 sutkasida $266,91 \pm 4,27$ mkg/ml Gk sintezlashi aniqlandi. Kartoshkali ozuqa muhitiga uglevod manbalari sifatida mayiz chiqindisi solinganda $307,93 \pm 9,54$ mkg/ml va melassaga o'zgartirilganda $472,73 \pm 7,28$ mkg/ml Gk hosil bo'lishi aniqlandi. *P.megaterium* BDI-2 bakteriya shtammi ISK hosil qilishi o'rganilganda saxarozali ozuqa muhitida inkubatsiyaning 2 sutkasida $315,09 \pm 9,89$ mkg/ml ni tashkil etdi. Dekstroza, melassa va mayiz chiqindisidan uglevod manbai sifatida foydalanilganda mos ravishda $576,67 \pm 9,63$ mkg/ml, $451,23 \pm 12,18$ mkg/ml va $433,26 \pm 11,69$ mkg/ml hosil qilishi aniqlandi.


P.agglomerans BDI-1 shtammining fitogormon faolligiga saxaroza dekstroza, melasa va mayiz chiqindisi uglevod manbalarining ta'siri o'rganilganda, Gk faolligi inkubatsiyaning 4 sutkasida saxarozali ozuqa muhitida $129,87 \pm 2,72$ mkg/ml, dekstrozali ozuqa muhitida $301,53 \pm 8,14$ mkg/ml, mayiz chiqindisida $289,36 \pm 3,47$ mkg/ml va melassali ozuqa muhitida $316,11 \pm 7,58$ mkg/mlni tashkil etdi. ISK faolligiga ta'siri o'rganilganda inkubatsiyaning 2 sutkasida eng yuqori faollik aniqlandi. Saxarozali ozuqa muhitida $378,76 \pm 6,06$ mkg/ml, dekstrozada $443,47 \pm 8,42$ mkg/ml, mayiz chiqindisi qo'llanilgan variantda $434,53 \pm 11,73$ mkg/ml, mayiz chiqindisi qo'llanilgan variantda $434,53 \pm 11,73$ mkg/ml va melassali $527,4 \pm 16,34$ mkg/ml ozuqa muhitida ekanligi aniqlandi.

***Pantoea agglomerans* BDI-1 va *Priestia megaterium* BDI-2 shtammlarning GK va ISK hosil qilishiga ozuqa muhitining boshlang'ich pH qiymatining ta'siri** 5,5; 6,5; 7,5 va 8,5 oralig'ida o'rganildi. Tadqiqotda tanlab olingan kartoshka dekstrozali ozuqa muhitining dekstroza o'rniga uglevod manbai sifatida melassa solingan ozuqa muhitida shtammlar 7 sutka davomida inkubatsiya qilindi va fitogormon faolligi aniqlandi. Natijada *P.agglomerans* BDI-1 bakteriya shtammining




11-rasm. Kartoshka melassali ozuqa muhitining turli pH ko'rsatkichlarida *Pantoea agglomerans* BDI-1 shtamining GK va ISK hosil qilishi mkg/ml da (n=5)

kuzatildi. Eng qulay pH ko'rsatkichlari 6,5 va 7,5 bo'lganda fitogormon faolligi sezilarli darajada oshdi va mos ravishda $101,21 \pm 2,42$ va $104,76 \pm 2,51$ mkg/ml GK hamda $364,42 \pm 5,10$ va $408,91 \pm 11,04$ mkg/ml ISK hosil qilishi aniqlandi. *Pantoea agglomerans* BDI-1 bakteriya shtammi uchun optimal pH ko'rsatkichlari 6.5-7,5 oralig'ida ekanligi belgilandi. Shuningdek *Priestia megaterium* BDI-2 shtamining optimal pH ko'rsatkichlari aniqlandi.



12-rasm. Kartoshka melassali ozuqa muhitining 5,5;6,5; 7,5 va 8,5 pH ko'rsatkichlarida *Priestia megaterium* BDI-2 shtamining GK va ISK hosil qilishi mkg/ml da (n=5)

Tanlab olingan bakteriya shtammlarining fitogormon hosil qilishiga nafaqat pH balki haroratning ta'siri ham o'rganildi. Bakteriyalar 20°C dan 65°C gacha bo'lgan haroratlarda inkubatsiya qilindi. Natijada haroratning tushishi ham ortishi ham fitogormonlarni sintez qilishi pasayib borishi kuzatildi. *Pantoea agglomerans* BDI-1 shtammi 25 va 35°C haroratda yuqori miqdorda Gk hosil qilishi aniqlandi. Inkubatsiyaning 4 sutkasida $316,14 \pm 3,79$ mkg/ml va $234,67 \pm 5,63$ mkg/ml tashkil etdi.




